

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-5 METHOD OF TRANSFERRING WORD MEANING

Shahzodbek Baxtiyarovich Matnazarov

Urganch State University

e-mail matnazarov97@inbox.ru

Annotatsiya. So‘zlar o‘z ma’nosini bilan ob’yektiv borliqdagi narsa, harakat, belgi kabilarning konkret o‘zini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi. Tushuncha ob’yektiv borliqdagi narsa-hodisalarning kishi ongida umumlashgan holdagi in’ikosidir. Narsa-hodisa haqidagi tushuncha shu turdagiga narsa-hodisalarga xos umumiyligi belgilarni birlashtiradi. Ko‘rinadiki, leksik ma’no bilan tushuncha o‘rtasida umumiyligi bor. So‘zlar o‘ziga xos fonetik, so‘z yasalish, morfologik strukturaga ega bo‘lgani kabi o‘ziga xos semantik strukturaga ham ega bo‘ladi. So‘zning semantik strukturasiga kiruvchi leksik ma’no ham ma’lum komponentlardan tashkil topadi. Ushbu maqolada aynan shu narsalar o‘z ifodasini topgan.

Аннотация. Слова представляют концепцию, а не самоподобное, действие, характер в существовании, такие как акт, персонаж. Концепция является обобщенным отражением того, что объективно в умах человека человека. Концепция чего -то, что сочетает в себе общие признаки такого типа вещей. По -видимому, между лексическим смыслом и концепцией существует общее. Слова также имеют уникальную семантическую структуру, такую как наличие уникальной фонетики, слово с морфологической структурой. Лексическое значение, которое включает в себя семантическую структуру слова, также состоит из определенных компонентов. Это тоже самое, что отражено в этой статье.

Annotation. The words represent the concept of them not self-like, action, character in existence, such as the act, the character. The concept is a generalized reflection of what is objective in the minds in the minds of the person. The concept of something that combines the general signs of this type of things. Apparently, there is general between lexical sense and the concept. Words also have a unique semantic structure, such as having a unique phonetic, a word with a morphological structure. The lexical meaning that includes the semantic structure of the word is also made up of certain components. This is what the same thing is reflected in this article.

Kalit so‘zlar: ma’no, so‘z, onomim, sinonim, tilshunoslik, metafora.

Ключевые слова: значение, слово, сурит, синоним, лингвистика, метафоры.

Keywords: meaning, word, surim, synonym, linguistics, metaphors

Til bevosita ajdoddlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ma’naviy meros, bebahon boylik hisoblanadi. Shuning uchun prezidentimiz I.A.Karimov “uni boyitish, asrab-avaylash, nufuzini yanada oshirish uchun doimo izlanishlar, tadqiqotlar olib borish zarur” ligini ta’kidlab o’tgan.¹ Ma’lumki, leksema – tilning asosiy birligi sifatida bizni qurshab turgan olam unsurlarini nomlash uchun xizmat qiladi. Leksema nomlash vazifasi bilan chegaralanib qolmasdan, olam haqidagi bilimlarimizni kelajak avlodlarga yetkazish, anglash, tinglovchiga ta’sir etish kabi vazifalarni ham bajaradi. Bu esa so‘zning naqadar serqirra hodisa ekanligidan dalolat beradi. So‘zlar dastlab paydo bo‘lganda biror bir predmet, harakat, holat yoki miqdor haqidagi tushunchalarni ifodalash uchun paydo bo‘ladi. Keyinchalik til taraqqiyoti natijasida so‘zning ma’nolari taraqqiy etib boradi va natijada so‘zlar asl-real ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarni ham anglatadi. Ko‘chma

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-5

ma'nolar tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosi negizida vujudga keladi. O'zbek va jahon tilshunosligida so'z va uning ma'nolari xususida ko'plab ilmiy-nazariy qarashlar mavjud bo'lib, unda so'z ma'nolaring o'ziga xosligi, mohiyati, turlari, xusan, so'z ma'nolarining ko'chishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar maydonga kelgan. Ularni o'rganish va tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

So'z paydo bo'lishidayoq o'z tovush qobig'iga va ma'lum bir ma'noga ega bo'ladi. So'zlar o'z ma'nosi bilan ob'yektiv borliqdagi narsa, harakat, belgi kabilarning konkret o'zini emas, balki ular haqidagi tushunchalarni ifodalaydi. Tushuncha ob'yektiv borliqdagi narsa-hodisalarining ongda umumlashgan holdagi in'ikosidir. So'zlar o'ziga xos fonetik, so'z yasalish, morfologik strukturaga ega bo'lgani kabi o'ziga xos semantik strukturaga ham ega. So'zning semantik strukturasiga kiruvchi leksik ma'no turli tiplarga ajraladi: etimologik ma'no, bosh ma'no, yasama ma'no, asos ma'no, nominativ ma'no, figural ma'no, erkin ma'no, bog'liq ma'no va hokazo. Ko'pma'nolilik va ko'chma ma'nolar asosan so'zning bosh ma'nosi yoki asos ma'nolari zaminida yuzaga keladi. Bosh ma'noning taraqqiyoti natijasida so'z ma'nosida turli xil o'zgarishlar sodir bo'ladi. So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishi ham ana shu taraqqiyot natijasidir. O'zbek tilshunosligida so'z ma'nolarining ko'chish usullari sifatida metafora, metonimiya, sinekdoha, vazifadoshlik e'tirof etiladi. Metafora – nom ko'chishining alohida bir turi hisoblanib, unda ob'yektiv borliqdagi narsa, hodisa, belgi, harakatlar o'rtasida keng ma'nodagi o'xhashlik asos bo'ladi. Ya'ni metafora qandaydir bir o'xhashlik asosida bir narsa nomining ikkinchi bir narsa nomi o'rnida qo'llanishidir. Masalan, tulki (ayyorlik), bo'ri (yulg'ichlik), gul (chiroylilik). Metaforik ma'no nutqni bezash, ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qiladi. Nomlashni ham nazarda tutadi. Uning qo'llanilish darajasi nihoyatda keng bo'lib, ilmiy uslubdan boshqa barcha uslublarda qo'llaniladi. Metafora ekspressivlik ifodalash jihatidan ikki turga bo'linadi. a) ekspressiv (ilm urug'i, xurriyatning chashmasi); b) noekspresiv (o'choq boshi, choynakning og'zi). Har qanday metaforik ma'no dastlab paydo bo'lganda ekspressiv bo'ladi, tilda ko'p marta qo'llanilishi natijasida ekspressivlikni yo'qotib oddiy nomga aylanib qoladi. Metaforik ma'no tilda ikki asosga ko'ra yuzaga keladi: 1) nomsiz shartli narsani nomlash zaruriyati 2) nomli narsani qayta nomlash. (ikkilamchi nominatsiya) Masalan, samo xaltasi, g'amning ignasi (nomsiz narsani nomlash). Boqibuldozer, Ali-laylak (nomli narsani nomlash). Saida-sinchalak. Metafora ko'p qirrali jarayon. Shuning uchun uning tafsifi bir necha jihatni qamrab oladi. Metonimiya ham nom ko'chish usuli bo'lib, narsalar orasidagi ob'yektiv bog'liqlikka asoslanadi. Bog'liqlik asosidagi ko'chish bir necha xil bo'lishi mumkin. Metafora va metonimiya orasidagi farq nom ko'chish asoslaridadir. Metaforaga o'xhashlik, metonimiya bo'liqlik asos bo'ladi. Bu eng asosiy farq bo'lib, o'xhashlik va bog'liqlik munosabatlari orasidagi tafovut bu farqni yanada kuchaytiradi. Bu tafovut shundaki, o'xhashlik qaysidir darajada erkin, ya'ni sub'ekt o'xhashlikni ochadigina emas, balki yaratadi. Metonimiya bo'liqlik asos bo'lar ekan, bog'liqlik ob'yektiv mavjud bo'lmasa, uni tiklab bo'lmaydi. Masalan, Navoiyni oldim qo'limga (kitobi). Samarqand bosh ko'tardi (odamlar). Darhaqiqat, bog'liqlik (munosabati) xususiyati doimiy bo'lib, uni hamma qayd etadi. Bu munosabat bo'lmasa, ma'noning bog'liqlik asosida ko'chish holati yuzaga chiqmaydi. Sinekdoxa ham ma'no ko'chish usuli sifatida butun va qism orasidagi bog'liqlikni nazarda tutadi. Ya'ni butun orqali qismni, aksincha qism orqali butunni nomlash sinekdoxa usulida nom ko'chishidir. Masalan, besh qo'l barobar emas (butun orqali qism, barmoq). Ne kunlarni ko'rmadi boshim (qism orqali butun, odam) Tilda sinekdoxa usulida nom ko'chish metafora va metonimiya nisbatan kamroq uchraydi. Vazifadoshlik ham ma'no ko'chishining alohida bir

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-5

usuli sifatida bir narsaning nomi boshqasiga ular bajargan vazifasidagi o'xshashlik asosidagi ko'chishni nazarda tutadi. Demak, vazifadoshlik asosidagi ko'chirish ham o'xshashlikka asoslanar ekan, bu jihatdan u metafora yo'li bilan ma'no ko'chishiga juda yaqin turadi. Farq shundaki, metafora yo'li bilan ma'no ko'chishda predmetlar orasidagi tashqi ko'rinish jihatdan, material jihatidan o'xshashlik asosga olinsa, funksional ko'chishda vazifa jihatdan o'xshashlik nazarda tutiladi: qanot, siyoh, ko'mir. Funksional ko'chirishda ko'pincha shakliy o'xshashlik ham qatnashadi. Yuqorida keltirilgan qanot so'zida shakliy, ko'mir so'zida rang jihatdan, siyoh leksemasida holat (suyuk) jihatdan o'xshashlik mavjud. Shu sababli ko'chirishlarni funksional-metaprofik ko'chirish deb baholash holatlari uchraydi. Xulosa qilib aytganda so'z ma'nosining ko'chish usullari ma'no nozikliklari bilaan bir-biriga o'xshaydi, lekin ular bitta narsa emas. Ya'ni metafora keng ma'noda narsalar orasidagi o'xshashlikka asoslansa, metonimiya ob'ektiv bog'liqlikka asoslansa, sinekdoha butun qism munosabati asosidagi ko'chishni, vazifadoshlik esa ana shu nom ifodalagan predmetning vazifalari jihatdan bir xil, material jihatidan turlicha bo'lган narsalar o'rtasidagi ko'chishni anglatadi. Bu usullarning barchasi tilda keng qo'llaniladi hamda so'zlovchining lisoniy mahoratini, nutqiy ta'sirchanlikni, emotsiyonallikni oshirishga, fikrni ixcham lo'nda va aniq tushunilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Tilda so'z va leksema atamalari ko'p hollarda aralash holda qo'llanadi. Leksema – jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lган, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarni o'ziga biriktira oladigan morfema turidir1. Leksema semema va nomemalarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sanalib, uning mazmuniy mundarijasi atash, ifoda va vazifaviy semalar munosabatidan iborat. Har qanday leksemada bu semalardan "atash" semasi, albatta, ishtirok etadi. Shuning uchun bu sema leksemaning markaziy semasi, qolgan semalar esa chegara semalar hisoblanadi. Masalan, so'zlamoq, do'ngillamoq leksemalari bir xil atash semasiga ega bo'lib, ifoda semasi bilan bir-biridan farq qiladi. So'z atamasi leksemalardan boshqa birliklarni ham, ya'ni atash semasiga ega bo'lmagan birliklarni ham o'z ichiga oladi1. Masalan, ammo, uchun so'z, lekin leksema emas, chunki ularning atash semasi mavjud emas, faqat grammatik ma'noga ega. Demak, so'z grammatik ma'noga ega bo'lган leksemalarni va yordamchi, undov, modal nomlari bilan yuritiluvchi birliklarni ham o'z ichiga oladi. Leksema leksik sath birligi sanaladi. U grammatik ma'no va bu ma'noni ifodalovchi shaklg'a ega bo'lib, so'zga ya'ni, morfologik birlikka aylanadi. Masalan, daraxt shoxlanuvchi ko'p yillik o'simlik, atash semasiga ega bo'lishi bilan leksema. Bu leksema, "ot", "bosh kelishik", "birlik", semalariga va bu semalarni ifodalovchi shakllarga ega bo'lishi bilan so'zga, morfologik birlikka aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А.Юксак манавият – енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008.
2. Нурмонов А., Исқандарова Ш. Умуний тилшунослик. -Андижон, 2007.
3. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Морфология. –Т., 1975.
4. Ўзбек тили лексикологияси. -Т., 1983.
5. Миртожиев М.Лингвистик метафоралар таснифи./Ўзбек тили ва адабиёти. 1973,4-сон
6. Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. -Т.: Ўқитувчи, 1985.